

QASHQADARYO VILOYATIDA IQTISODIY O'SISHNING HUDUDIIY NOMUTANOSIBLIKLARI VA ULARNING TARKIBIIY OMILLARI

Imomov Ulug'bek Ramazon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 30.05.2026

Revised: 31.05.2026

Accepted: 01.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

*hududiy iqtisodiyot,
iqtisodiy o'sish,
Qashqadaryo viloyati,
hududiy nomutanosiblik,
YaHM, investitsiya
samaradorligi,
diversifikatsiya, inson
kapitali, regional
rivojlanish, iqtisodiy
transformatsiya.*

Maqolada Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy o'sish sur'atlari respublika o'rtacha ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida hududda iqtisodiy o'sish samaradorligini cheklayotgan tarkibiy va institutsional omillar, investitsiya samaradorligining pasayishi hamda iqtisodiyotning xomashyo omillariga yuqori darajada qaramligi o'rganildi. Shuningdek, aholi jon boshiga YaHM ko'rsatkichlari asosida hududiy nomutanosibliklarning kuchayib borayotgani tahlil qilinib, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarni rivojlantirish zarurligi asoslab berildi.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy salohiyati yuqori hududlardan biri hisoblanishiga qaramay, keyingi yillarda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari respublika o'rtacha darajasidan ortda qolayotganligi kuzatilmoqda. Bu holat hudud iqtisodiyotida tarkibiy muammolar, investitsiya samaradorligining pasayishi hamda iqtisodiy diversifikatsiya darajasining yetarli emasligi bilan izohlanadi. Maqolada Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari respublika o'rtacha darajasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi hamda hududiy rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar baholanadi.

Olib borilgan tahlillardan oydinlashadiki, tahlil qilinayotgan davrning deyarli barcha yillarida (2017 va 2022 yillar mustasno) Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy o'sish sur'atlari umummilliy o'rtacha ko'rsatkichlardan sezilarli darajada past trayektoriyada harakat qilgan. Ayniqsa, 2018 va 2019-yillarda bu salbiy tafovut mos ravishda -4,0 va -4,9 foiz punktini tashkil etgan.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining respublika o'rtacha darajasi bilan taqqoslanishi (%)

Yil	Qashqadaryo viloyati	Respublika bo'yicha o'rtacha hisobda o'sish (%)	Farq (%)
2015	107,3	108,0	0,7
2016	106	106,9	0,9
2017	103,6	103,2	-0,4
2018	101,7	105,7	4,0
2019	102	106,9	4,9
2020	102	102,5	0,5
2021	107,7	109,0	1,3
2022	106,7	106,4	-0,3
2023	105,5	105,7	0,2
2024	105,9	106,5	0,6
2025	106,8	107,9	1,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi.

Hududda uzoq yillar davomida to'planib qolgan tarkibiy muammolarning chuqurlashganini va investitsiya samaradorligi (ICOR) pasayib ketganini ko'rsatadi. Viloyatda sanoat tarmoqlarining (ayniqsa, paxta va g'alla zanjirlarining) Maykl Porter aytgan erkin bozor raqobatiga tayanuvchi klaster tamoyillari asosida emas, balki asosan "yuqoridan pastga" ma'muriy buyruqbozlik usulida boshqarilganligi ichki tadbirkorlik energiyasini bo'g'ib qo'ydi. Natijada kiritilgan ulkan kapital qo'yilmalar kutilgan multiplikativ samarani bera olmasdan, turg'unlikka sabab bo'ldi.

Olib borilgan statistik qiyoslashlar O'zbekiston regional tizimlarida o'sish sur'atlari nomutanosib shakllanayotganini tasdiqlaydi. 2020-yilgi post-pandemiya fazasida ba'zi yirik infratuzilmaviy markazlarda iqtisodiy faollik shiddat bilan tiklangan bo'lsa-da, Qashqadaryo kabi birlamchi sektorgagina qaram bo'lib qolgan hududlarda turg'unlik elementlari saqlanib qoldi. Bu esa II bobda asoslangan "Past o'sish tuzog'i" (Low-growth trap) milliy iqtisodiyotimiz realligida mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Shu mantiqdan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, hududiy rivojlanish darajasini faqat yalpi makro-ko'rsatkichlar yoki o'rtacha sur'atlar bilan baholash sub-lokal (tumanlararo) darajadagi uzilish va tengsizliklarni maskirovka qiladi (yashirib yuboradi). BMT Taraqqiyot Dasturining fundamental xulosalarida qayd etilganidek, Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmining mexanik ortishi avtomatik ravishda tengsizlikni kamaytirmaydi va barqarorlikni ta'minlamaydi. Demak, regional o'sishning haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy tabiati va uning aholi farovonligiga transformatsiyalanish sifatini tahlil qilish uchun asosiy e'tibor aholi jon boshiga yaratilayotgan iqtisodiy qiymatga, ya'ni aholi jon boshiga YaHM ko'rsatkichlarining qiyosiy dinamikasiga qaratilishi metodologik jihatdan ob'ektiv zaruriyatdir.

Navbatdagi jadval tahlili Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o'sish ko'rinishlari asosan ekzogen ya'ni tashqi bosimli va xomashyo omillariga tayangan holda shakllanayotganini, bu esa regional diversifikatsiya darajasining pastligini tasdiqlaydi. Mintaqada yalpi mahsulot hajmi mutloq raqamlarda ortayotgan bo'lsa-da, ushbu o'sishning aholi real farovonligiga va yuqori qo'shilgan qiymatli zanjirlarga transformatsiyalanish mexanizmi o'ta kuchsizdir. Ushbu zanjir muammosi hudud iqtisodiyotida chuqur qayta ishlash sanoatining ulushini ko'paytirish, kichik va o'rta biznes ekotizimini rag'batlantirish hamda II bobda tilga olingan investitsion samaradorlik (ICOR) koeffitsiyentini yaxshilash zarurligini ko'rsatadi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyati aholi jon boshiga YAHM ko'rsatkichlarining Respublika o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslama tahlili (mln.so'm)

Yil	Qashqadaryo viloyati	Respublika bo'yicha o'rtacha hisobda yillik ko'rsatkich	Farq
2015	6.758	7.163	0.406
2016	7.766	8.282	0.515
2017	8.288	10.305	2.016
2018	9.963	13.411	3.447

2019	12.016	17.401	5.385
2020	12.787	19.975	7.188
2021	15.179	23.802	8.623
2022	17.364	27.632	10.268
2023	20.283	32.444	12.161
2024	23.320	39.499	16.179
2025	26.857	47.063	20.206

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqildi.

Viloyatda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaHM ko'rsatkichlarini umummilliy o'rtacha daraja bilan qiyoslash, hududiy rivojlanish natijalarining mamlakatdagi iqtisodiy transformatsiya sur'atlaridan ancha orqada qolayotganini fosh etadi. 2015-yilda Qashqadaryo viloyati ko'rsatkichi bilan respublika o'rtacha darajasi o'rtasidagi nomutanosiblik 406 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakuniga kelib ushbu salbiy tafovut geometrik progressiyada o'sib, 20 206 ming so'mga yetgan. Demak, mintaqada iqtisodiy drayverlar mavjud bo'lishiga qaramay, o'sishning intensivligi va kapital qaytimi respublika miqyosidagi o'rtacha rivojlanish standartlariga mutloq javob bera olmayapti.

Ayniqsa, 2018-yildan keyingi bosqichda regional farqning keskin kengayib borishi hududiy tizim ichidagi tarkibiy-strukturaviy to'siqlarni yaqqol namoyon qiladi. O'sish modelining faqat resurslarni qazib olish omillariga tayanib qolishi, innovatsion qayta ishlash tarmoqlari ulushining sustligi va inson kapitali sifatining mehnat bozori talablari bilan uzilib qolganligi o'sishning mevalarini cheklab qo'yimoqda.

Kuzatilgan salbiy tendensiya Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy siyosatning miqdoriy ko'rsatkichlaridan strategik jihatdan voz kechib, uning sifat parametrlariga alohida urg'u berishni taqozo etadi. Iqtisodiyot tuzilmasini diversifikatsiyalash, klasterlar tizimidagi ma'muriy to'siqlarni yo'qotish, texnologik investitsiyalar qaytimini oshirish va yuqori rentabelli xizmatlar industriasini kengaytirish jon boshiga yaratilayotgan iqtisodiy qiymatni yuksaltirishning yagona strategik yo'lidir. Aynan shu mantiqqa ko'ra, regional iqtisodiy o'sish sur'atlariga daxldor bo'lgan asosiy determinantlarning real ta'sir kuchini shunchaki deskriptiv emas, balki chuqur miqdoriy tahlillar yordamida baholash ob'ektiv ilmiy-amaliy dolzarblik kasb etadi.

Tahlillar Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o'sish sur'atlari respublika o'rtacha ko'rsatkichlariga nisbatan past shakllanayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, aholi jon boshiga

=====

YaHM ko'rsatkichlari bo'yicha mavjud tafovutlarning yildan-yilga kengayib borayotgani hudud iqtisodiyotida tarkibiy muammolar mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtisodiy o'sishning asosan xomashyo omillariga tayanib qolishi, qayta ishlash sanoati va yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlar ulushining pastligi hudud rivojlanish samaradorligini cheklamoqda. Shu sababli iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, investitsiya samaradorligini oshirish hamda kichik biznes va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, hududiy iqtisodiy siyosatda faqat miqdoriy o'sish ko'rsatkichlariga emas, balki aholi farovonligi va iqtisodiy samaradorlikning sifat jihatlariga ham alohida e'tibor qaratish zarurligi asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. — Toshkent, 2015–2025.
2. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy statistik to'plamlar va hisobotlar.
3. Gary Becker Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education. — Chicago: University of Chicago Press, 1993.
4. Theodore Schultz Investment in Human Capital // The American Economic Review. — 1961. — Vol. 51. — №1.
5. World Bank. World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. — Washington DC, 2019.
6. OECD. The Well-being of Nations: The Role of Human and Social Capital. — Paris, 2001.